

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KEÑESINIŇ  
BIYLIGI**

2023 - yil 3 - may

88-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 73-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi kotibiyat mudiri X.Bayjanovning 2023-yil 10-apreldagi bildirgisi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 13-apreldagi SM/12-02/1180-sonli xulosasini inobatga olib:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi (M.Sodikov) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasida aholining iqtisodiy faolligi tendensiyalarini tahlil qilish hamda iste'molchi kayfiyati indeksini tuzish xizmatlarini ko'rsatish uchun **jami 72 000 000** (yetmish ikki million) **so'm** mablag'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining zaxira jamg'armasi hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasiga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratish choralarini ko'rsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Ishlar Boshqarmasi (A.Ismailov) ajratilgan mablag'larni qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va asoslarda, maqsadli yo'naltirilishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (B.Utambetov)dan yuqorida ko'rsatilgan ishlarga ajratilgan mablag'ning qonunchilikda o'rnatilgan asoslarda va tartibda, maqsadga muvofiq ishlatilishini nazorat qilish so'ralsin.

4. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining birinchi o'rinbosari N.Erlepesov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F. Ermanov**